XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 16-oktabr VII-39-120-5-0-K/26 Navoiy viloyati

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan koʻrsatiladigan suv ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari tariflarini koʻrib chiqish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi “Ichimlik suvi taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-784-sonli Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi “Kommunal xizmatlar koʻrsatish qoidalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”ga 194-sonli Qarori, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 2026-yil 12-iyundagi 04-02-02/5747-sonli xati, viloyat hokimligining 2026-yil 10-avgustdagi 406/16-26-sonli bildirgisi, xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar boʻyicha doimiy komissiyasining 2026-yil 10-avgustdagi DKQ 03-01/96-26-sonli qarori va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2026-yil 12-oktabrdagi 01-12/20-11-32/883-sonli xulosasi inobatga olib, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, kanalizatsiya xizmatlari koʻrsatish ahvolini yanada yaxshilash maqsadida, bildirilgan taklif, fikr va mulohazalarni inobatga olgan holda, “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi OʻRQ-784-sonli Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 194-sonli qarori ijro uchun, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati budjetlashtirish va kontroling boshqarmasi boʻlimi boshligʻi N.Joʻrabekovning ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari tariflari yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan koʻrsatiladigan ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari (shuningdek, texnik suv) uchun taklif narxlari (tariflar) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 24-sentabrdagi VII-17-108-5-0-K/25-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Sh.Raubayeva), viloyat teleradiokompaniyasi (A.Muqimov), “Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalari tahririyati davlat korxonasi (B.Umarov)ga olib borilayotgan ishlarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingandan boshlab, 15 kundan so‘ng kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash viloyat hokimi o‘rinbosari (A.Niyozov) hamda nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Isoqov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ALIYEV G‘OFIR QUVATOVICH**

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2026-yil 16-oktabrdagi
VII-39-120-5-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ tomonidan koʻrsatiladigan ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari (shuningdek, texnik suv) uchun TAKLIF NARXLARI (TARIFLAR)

so‘mda

T/r	Mahsulot nomi	hajmi	Narxi (QQS siz)		
			aholi	budjet tashkilotlari	boshqa ulgurji
Markaziy kon boshqarmasi (Zarafshon shahri)					
1	Ichimlik suvi	1 m^3	7 900	10 500	10 500
2	Texnik suv	1 m^3	7 200	7 200	7 200
Shimoliy kon boshqarmasi (Uchquduq tumani)					
1	Ichimlik suvi	1 m^3	4 200	10 500	10 500
2	Texnik suv	1 m^3		8 300	8 300
3	Oqova suv	1 m^3		475	475
4	Oqova suv (3-sonli GMZ)	1 m^3		10 500	10 500